



Fan dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Kengashining 202\_ -yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli buyrug' i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

R. Xudayorov



O'ZMUJF, "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

To'ychiyeva N



O'ZMUJF, "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi assistenti

Taqrizchi:

R. Xidoyatov — JizPI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Fan dasturi "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasining 2022-yil \_\_\_dagi \_\_\_-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet uslubiy Kengashiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



B. Nosirov

Fan dasturi "Psixologiya" fakulteti uslubiy Kengashida muhokama etilgan va filial ilmiy-uslubiy Kengashiga muhokama uchun tavsiya qilingan (2022-yil \_\_\_dagi \_\_\_-sonli bayonnomada).

Fakultet uslubiy Kengashi raisi:



N. Alimov

Fan dasturi filial ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (202\_ -yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli bayonnomada).

Filial ilmiy-uslubiy Kengashi raisi:



R. Abduraxmanov

| Fan/modul kodi<br>YSTB304     | O'quv yili<br>2022-2023            | Semestr<br>6                 | ECTS – Kreditlar<br>4        |
|-------------------------------|------------------------------------|------------------------------|------------------------------|
| Fan /modul turi<br>Qo'shimcha | Ta'lim tili<br>O'zbek              |                              | Xaftadagi dars soatlari<br>4 |
| 1.                            | Fanning nomi                       | Auditoriya<br>mashg'ulotlari | Mustaqil<br>ta'lim           |
|                               | Yuridik shaxslarni soliqqa tortish | 60                           | 60                           |
|                               |                                    |                              | Jami yuklama<br>120          |

### I. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi, soliq solinadigan bazani aniqlash, soliq stavkalarini va soliq imtiyozlarini qo'llash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha soliq hisobotini rasmiylashtirish va taqdim etish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

#### Fanning asosiy vazifalari:

- Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplarini bilish;
- Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni tahlil qilish va ishtirok qilishni amalga oshirish yo'llarini;
- Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini;
- Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy soliqlarni mohiyati, ahamiyati hamda budjetda tutgan o'rmini o'rganadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

#### Talaba:

- yuridik shaxslar haqida tushuncha va ularning turlari;
- yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni;
- yuridik shaxslardan undiriladigan bevosita va bilvosita soliqlar;
- yuridik shaxslarni soliqqa tortishning umumbeilgilangan va soddalashtirilgan tartibi;
- yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va yuridik shaxslarni soliq organlariga ro'yxatga qo'yish tartibi;
- yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarni davlat budjeti daromadlarida

tutgan o'rnini *haqida tasavvurga ega bo'lish*,

- yuridik shaxslarni soliqqa tortishning nazariy va huquqiy asoslarini;
- yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash usullarini;
- yuridik shaxslarni soliqqa tortishga oid soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni *bilishi va ulardan foydalana olish*,
- yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar bo'yicha soliq stavkalarini qo'llash;
- soliqqa tortiladigan ob'ekt va soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash;
- yuridik shaxslarga berilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalarni qo'llash;
- soliqqa oid javobgarlik choralarini qo'llash yuridik shaxslar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini nazorat qilish;
- yuridik shaxslardan olinadigan bevosita va bilvosita soliqlarni to'g'ri hisoblash;
- yuridik shaxslar tomonidan davlat maqsadli jamg'armalariга to'lanadigan majburiy to'lovlarni to'g'ri hisoblash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining mazmuni, predmeti va metodi.

"Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining mazmuni, predmeti va metodi. Soliq tizimida ro'y berayotgan hodisa va jarayonlarni ifodalashda yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining ahamiyati. Davlat soliq xizmatiga yetuk kadrlarni tayyorlashda fanning tutgan o'rnini va roli.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplari.

Yuridik shaxslar xaqida tushuncha, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari va faoliyat yuritish turlari. Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy solikdarni mohiyati, ahamiyati hamda davlat budjet daromadlarida tutgan o'rnini.

### 2-mavzu. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishning obektiv zarurligi va iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari. Faoliyati natijasida olinadigan jami daromad tarkibi.

Soliqqa tortiladigan obektni hisoblashda jami daromadni aniqlash tartiblari. Chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi. Soliq solinadigan foydani kamaytirish. Zararlarni taqsimlab o'tkazish. Soliq solinadigan bazasini hisoblab chiqarish tartibi. Foyda

solig'i stavkalari, to'lash muddatlari va imtiyozlar. O'zbekiston Respublikasi norezident yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Kredit tashkilotlardan foyda solig'ini undirish tartibi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini undirishdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.

### 3-mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llovchi mikrofirma va kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi iqtisodiy mohiyati va tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasi. Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovinii joriy etilishi.

Mikrofirmalar, kichik va oilaviy korxonalariga yagona soliq to'lovinii qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Yagona soliq to'lovinii hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Yagona soliq to'lovinii to'lovchilari, soliqqa tortish obektlari, stavkalari va soliq solinadigan baza. Yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilishi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarini taqdim qilish va soliqni to'lash tartibi. Yagona soliq to'lovinii hisoblab chiqarishda uning to'lanishi lozim bo'lgan eng kam miqdorini aniqlash tartibi. Yagona soliq to'lovinii hisoblashdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.

### 4-mavzu. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yalpi tushumdan yagona soliq to'lovinii joriy etilishi va iqtisodiy mohiyati. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovinii qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Chakana va ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan talablar. Ulgurji savdo korxonalarini tomonidan yagona soliq to'lovinii bo'nak to'lovlarni hisobga olgan holda to'lash tartibi.

### 5-mavzu. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan yagona yer solig'ini undirish tartibi. Yagona yer solig'i stavkalari, yerning me'yoriy qiymati va to'lov muddatlari. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar. Yagona yer solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllarini to'ldirish tartibi va soliq organlariga taqdim etish muddatlari. Yagona yer solig'ini hisoblashdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.



### 6-mavzu. Yuridik shaxslardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi va iqtisodiy mohiyati.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar va soliq solish obekti. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan oboroni belgilash. Soliq solinadigan baza va qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozlar. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot.

Soliq yuzasidan budjet bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Hisob varaq-faktura va uni rasmiylashtirish tartibi.

O'zbekiston Respublikasiga keltirilayotgan import tovarlarga (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bojxona yuk deklaratsiyasida rasmiylashtirish tartibi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllarini to'ldirish tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.

### 7-mavzu. Yuridik shaxslardai undiriladigan aksiz solig'i

Aksiz solig'ining joriy etilishi va iqtisodiy mohiyati. Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obektlari. Soliq solinadigan baza va soliq stavkalari. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi. Ayrim turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblash tartibi. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish. Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash.

Soliqdan chegirma va soliq davri. Aksiz solig'ini to'lash va hisob- kitoblarni taqdim qilish muddati va tartibi. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz markalarini joriy qilinishning iqtisodiy mohiyati.

### 8-mavzu. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy etilishi, maqsadi va iqtisodiy mohiyati. Mol-mulk solig'ini davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni. Yuridik shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari. Soliqqa tortish obekti. Asosiy vositalarning o'rtaacha yillik qoldiq qiymati. Belgilangan muddatlarda o'rnatilmagan mol-mulk, asbob-uskunalar uchun soliqqa tortish obekti.

Belgilangan muddatlarda qurilishi tugatilmagan obektlar uchun soliqqa tortish obekti. Soliq solinadigan baza va soliq solinadigan bazani belgilash tartibi. Mol-mulk solig'i stavkalari va imtiyozlar. Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Mol-mulk solig'ini undirishdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.

### 9-mavzu. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i

Yer solig'ining joriy etilishi, maqsadi va iqtisodiy mohiyati. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlari va ularning mazmun-mohiyati. Yer fondi toifalari. Yerning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bo'linishi. Yer solig'i to'lovchilari. Yer solig'i solinadigan obektlar. Soliq solish obekti sifatida qaralmaydigan yer uchastkalari. Yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.

Yer solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar. Jiraga berilgan yer uchastkalariga soliq solishning xususiyatlari. Yer solig'i stavkalari. Yer solig' i bo'yicha hisobotlarni taqdim etish muddati. Yer solig'ini davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni. Yer solig'ini undirishdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.

### 10-mavzu. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Suv va suvdan foydalanish munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish obektlari.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari. Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlari. Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun hisobotlarni to'ldirish tartibi va taqdim etish muddati.

### 11-mavzu. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun solliqlar va maxsus to'lovlar

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlarni joriy etilishi va maqsadi. Konchilik munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy- huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati. Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan solliqlar va maxsus to'lovlar haqida tushuncha.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish ob'ektlari. Soliq solinadigan baza, soliq davri va soliq stavkalari. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, ushbu soliq hisob-kitoblarni to'ldirish, taqdim etish vauni to'lash tartibi.

Qo'shimcha (ustama) foyda solig'i to'lovchilari, ob'ekti, bazasi va to'lov muddati hamda hisoblash tartibi. Bonuslar. Tijoratbop topilma bonusu va imzoli bonus. Mabsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlarni davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni. Yer qa'ridan

foydalanganlik uchun solig'ini undirishdagi mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari.

### 12-mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar

Yuridik shaxslar to'laydigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlarning turlari, joriy etilishi va maqsadi. Davlat maqsadli jamg'armalari va ularning vazifalari. Davlat maqsadli jamg'armalarning respublika iqtisodiyotida va budget tizimida tutgan o'rnini va ahamiyati.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari. Soliq to'lovchilar va soliq solish obekti.

Soliq solinadigan baza. Imtiyozlar. Soliq davri. Hisobot davri. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi. Yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarishda uning to'lanishi lozim bo'lgan eng kam miqdorini aniqlash tartibi. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari bo'yicha soliq hisoboti shakllarini to'ldirish tartibi.

Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar. Soliq to'lovchilar va soliq solish obekti. Soliq solinadigan baza. Soliq davri. Hisobot davri. Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish va ularni to'lash tartibi.

Respublika yo'l jamg'armasi va uning ahamiyati. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'imlar. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlarning turlari. Soliq to'lovchilar, soliq solish obekti va stavkalar. Soliq solinadigan baza va imtiyozlar. Soliq davri va hisobot davri. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'imlarni hisoblab chikarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to'lash tartibi.

### 13-mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlari

Davlat bojini to'lovchilari. Undirish obektlari. Davlat bojini to'lashdan ozod qilish tartibi. Davlat bojini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi. Davlat bojini boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan undirishning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat boji to'lovlarini va tushumlarini hisobga olish. Davlat bojini qaytarish tartibi.

Bojxona to'lovlarini to'lovchilari tarkibi. Undirish obektlari. Bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilish tartibi. Bojxona to'lovlarini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi. Bojxona to'lovlarini va tushumlarini hisobga olish.

### 14-mavzu. Yuridik shaxslar to'laydigan boshqa mahalliy soliq va yig'imlar

Transport vositalariga benzin, dizel yoqitilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning joriy etilishi va maqsadi. Soliq to'lovchilari, ob'ekti, soliq solinadigan baza va soliq stavkalari. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini to'ldirish, taqdim etish va soliq to'lash tartibi. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im. Yig'imni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.

### 15-mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan alohida soliq rejimlarini qo'llash tartibi. Yuridik shaxslar to'laydigan davlat bojlari, boshqa to'lov va yig'imlar. Nodavlat notijorat tashkilotlarga soliq solishning o'ziga xos jihatlari. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Konsert-tamasha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byuroolari va advokatlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

### IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining mazmuni, predmeti va metodi
2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llovchi mikrofirma va kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi
4. Savdo va umumiy ovgatlanish korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari
5. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i
7. Yuridik shaxslardan undiriladigan aksiz solig'i
8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
9. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i
10. Suv resurslaridan foydalanганlik uchun soliq
11. Yer qat'ridan foydalanuvchilar uchun soliq va maxsus to'lovlar
12. Yuridik shaxslar tomonidan davlat maqsadli jamg'armalariga

to'lanadigan majburiy to'lovlar

13. Davlat boji va bojxona to'lovlari
14. Yuridik shaxslar to'laydigan boshqa mahalliy soliq va yig'imlar
15. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining mazmuni, predmeti va metodi
2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llovchi mikrofirma va kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi
4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari
5. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i
7. Yuridik shaxslardan undiriladigan aksiz solig'i
8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
9. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i
10. Yuridik shaxslardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
11. Yer qo'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar
12. Yuridik shaxslar tomonidan davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar
13. Davlat boji va bojxona to'lovlari
14. Yuridik shaxslar to'laydigan boshqa mahalliy soliq va yig'imlar
15. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari
16. Davlat soliq xizmati organlari tizimida yuridik shaxslarga oid axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

##### Asosiy adabiyotlar:

1. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. -408 b.

2. Jo'rayev A.S., Usmanova M.S., Amanov A.M., Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik, –T.: "Iqtisod-moliya", 2019. –432 b.

3. Jo'rayev A., Shirinov S. Soliq statistikasi va prognozi. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. –416 b.
4. Jo'rayev A., Safarov G., Meyliyev O. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2019. –324 b.

5. Jo'rayev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: "Sano-standart", 2015. - 216 b.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2014. - 46 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018 yil yanvar.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tankidiy taxdill, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xapq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 48 b

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'napishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" da amalgama oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida" gi PF-5308-sonli Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida" gi Farmoni

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22 dekabr 2017 yil. Toshkent, Xalq so'zi gazetasi.



|   |  |
|---|--|
|   | <p>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br/> 2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br/> 3. <a href="http://www.soliq.uz">www.soliq.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Solik Qo'mitasi sayti.<br/> 4. <a href="http://www.mf.uz">www.mf.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.<br/> 5. <a href="http://www.norma.uz">www.norma.uz</a> - Elektron huquqiy sayti.<br/> 6. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi sayti</p> |
| 7 | <p>Fan dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialining 202_ yil ___ avgustidagi № ___ sonli Kengashda tasdiqlangan</p>  |
| 8 | <p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b><br/> R. Xudoyorov – "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi.<br/> N.To'ychiyeva - "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida assistenti</p>   |
| 9 | <p><b>Taqrizchilar:</b><br/> R. Xidoyatov – Jizzax politehnika instituti "Iqtisodiyot va menajment" kafedrasida dotsenti<br/> B. Muxtorov – O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida dotsenti vvb.</p>  |